



SANATORIYA – KURORT MUASSASALARI FAOLIYATINING BUXORO TURIZMI RIVOJIDA O`RNI

Murodov Halim Salimovich

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyatidagi profilaktika va sog'liqni tiklovchi uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan sanatoriyalar, sanatoriya-profilaktoriyalar, davolovchi pansionatlar va poliklinikalar, balneologik shifoxonalar, loy, tuz bilan davolash shifoxonalari, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan bolalar sanatoriya lagerlari kabilarning holati, ushbu tarmoqni yanada kengaytirishning ijobiy tomonlari borasida fikr yuritilgan. Ilmiy kuzatishlar natijasida soha rivoji bilan bog'liq mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qizilqum, sayohat, Yevropa Ittifoqi, mineral suvi, xavfsiz turizm, sanatoriya – kurort muassasalari.

Аннотация: В данной статье рассмотрено состояние специализированных санаториев, санаториев-профилакторий, лечебных пансионатов и поликлиник, бальнеологических больниц, грязелечебниц, постоянно действующих специализированных детских санаторно-курортных лагерей в Бухарской области и др. Положительные стороны дальнейшего расширения. По результатам научных наблюдений даны комментарии, связанные с развитием месторождения.

Ключевые слова: Кызылкум, путешествия, Евросоюз, минеральная вода, безопасный туризм, санаторно-курортное учреждение.



Abstract: This article examines the state of specialized sanatoriums, sanatoriums, medical boarding houses and clinics, balneological hospitals, mud baths, permanently operating specialized children's sanatorium and resort camps in the Bukhara region, etc. Positive aspects of further expansion. Based on the results of scientific observations, comments related to the development of the field were given.

Keywords: Kyzylkum, travel, European Union, mineral water, safe tourism, sanatorium and resort institution.

Turizm sohasining rivojlanishi tarixi albatta turizm soʻzining kelib chiqish, maʼnosi va qanday soha yoki harakat ekanligini bilishni taqazo etadi. Turizm (fransuzcha: tour — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri sifatida tavsif etiladi. 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm toʻgʻrisida” qonunning 3-moddasida turizm — jismoniy shaxsning vaqtincha boʻlish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat bilan shugʻullanmagan holda doimiy yashash joyidan joʻnab ketishi (sayohat qilishi) deb taʼrif berilgan¹. YUNVTO ning turistik atamalar lugʻatida turizm - bu ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa boʻlib, u odamlarning shaxsiy yoki biznes / kasbiy maqsadlarda odatdagi muhitdan tashqaridagi mamlakatlarga yoki joylarga koʻchishi bilan bogʻliq. Bu odamlar tashrif buyuruvchilar (turistlar yoki ekskursionistlar, rezidentlar yoki norezidentlar boʻlishi mumkin) deb ataladi va turizm ularning faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, ularning baʼzilari sayohat xarajatlarini oʻz ichiga oladi².

Oʻzbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev taʼkidlaganidek “Oʻzbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega boʻlgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortik madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO roʻyxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, goʻzal

¹ Oʻzbekiston Respublikasining “Turizm toʻgʻrisida” gi qonuni // Xalq soʻzi , №147(7377), 2019 yil 19 iyul .

² <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>



dam olish zonalarini imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yoʻnalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, maʼrifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratishimiz zarur”³.

Turizm insoniyat paydo boʻlgan davrdan boshlab, u bilan birga hamqadam rivojlanayotgan dunyoqarash va tasavvurlarini oʻzgarishi hamda kengayishiga ijobiy xizmat qilayotgan sohadir. Oʻzbekistonning tarixiy markazlaridan biri boʻlgan Buxoro turizmi industriyasida hali ham salohiyatli tarmoqlarning imkoniyatlaridan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Ayniqsa hozirgi kunimizda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim topish murakkablashgan vaziyatda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurati oʻlkamizda yangi turistik xizmatlar, yoʻnalishlar va hududning turistik salohiyatidan samarali foydalanish boʻyicha istiqbolli loyihalar zaruriyatga aylanmoqda. Shu jumladan, Buxoro viloyatining 80 foizdan ortigʻini Qizilqum choʻli mintaqasi tashkil etishini hisobga olsak, tabiiy suv manbalari boʻlmish mineral buloqlar va ulardan hosil boʻlgan bir necha koʻllar, issiq shifobaxsh suvli qaynar buloqlar va tuz konlarini maxsus laboratoriyalarda tahliliy oʻrganib, profilaktika va sogʻliqni tiklovchi davolashlar uchun moʻljallangan ixtisoslashtirilgan sanatoriyalar, sanatoriya profilaktoriyalar, davolovchi pansionatlar va poliklinikalar, balneologik shifoxonalar, loy, tuz bilan davolash shifoxonalari, doimiy faoliyat koʻrsatuvchi ixtisoslashtirilgan bolalar sanatoriya lagerlari kabilar tashkil etilsa bu sohadagi imkoniyatlarni toʻlaqonli ravishda ishga solishga yoʻl ochgan boʻlar edi. Bu borada Oʻzbekistonda ijobiy faoliyat yoʻlga qoʻyilgan boʻlsada, ammo Buxoro viloyatida turizmning bir tarmogʻi boʻlgan sanatoriya-kurort muassasalarini rivojlantirish va kengaytirish, yangi yoʻnalishdagi sihatgohlarni tashkil etish faoliyati qoniqarsiz ahvolda.

Birinchidan bu sanatoriya-kurort muassasalari tarmogʻining viloyatdagi faoliyatini tahlil qilganimizda sohadagi turgʻunlik holati va hozirgi davrda uni rivojlantirish ning

³ Sh.Mirziyoyev. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent: "Oʻzbekiston» NMIU, 2018. B-60-61.



omillari mavjudligini ko`ramiz. Bu fikrni sohadagi statistika bilan taqqoslash orqali tahlil qiladigan bo`lsak O`zbekistonda 2016 yilda 183 ta, 2017 yilda 193 ta, 2018 – 2019 yillarda 211 ta sanatoriya-kurort muassasalari obyektlari soni mavjud bo`lib, aynan 2019 yilda ular tomonidan 528 308 kishiga xizmat ko`rsatilgan<sup>4</sup>. Buxoroda esa 2010 yilda 6 ta, 2011 yilda 5 ta<sup>5</sup>, 2012 yildan to 2018 yilgacha 3 ta sanatoriya-kurort muassasalari bo`lib, afsuski ushbu sohada yangiliklar, qo`shimcha imkoniyatlarni ishga solish, kengaytirish borasida hech qanday amaliy choralar ko`rilmadi, aksincha mavjud bo`lgan resurslar, tibbiy – texnik uskunalar, eng achinarlisi esa sohadagi tajribali kadrlar qo`ldan chiqarildi. 2019-yilda sanatoriya-kurort muassasalari soni bittaga ko`payib, 4 tani tashkil etdi.

O`zbekistonda 2010-yilda xizmat ko`rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni bo`yicha Buxoro viloyati Toshkent viloyati, Farg`ona, Toshkent shahri, Namangandan so`ng 5 o`rinda bo`lib, ushbu yil 8,200 ta tashrif buyuruvchiga xizmat ko`rsatgan bo`lsa<sup>6</sup>, 2017-yilda 8620 ta, 2018-yilda 9688 ta, 2019-yilda esa 9320 ta kishiga xizmat ko`rsatilgan⁷. 2019-yilda 2018-yilga nisbatan xizmat ko`rsaish 3,8 % salbiy ko`rsatkichni qayd etdi. Shuningdek yana bir salbiy ko`rsarkich Buxoro viloyati 2019-yilda sanatoriya – kurort muassasalari soni jihatdan mamlakatda 14 ta ma`muriy hudud ichida 13 o`rinda bo`lib, 2016 – 2019 yillar davomida uzoq xorij davlatlaridan masalan Yevropa Ittifoqidan birorta ham fuqaro tashrif buyurmagani va hatto MDH davlatlaridan esa atigi 100 – 200 nafar fuqaroning tashrif buyurgani achinarli holatdir⁸. Buxoroda bolalar sanatoriyasi 2016 – 2017 yillarda atigi 1 ta bo`lib, 200 ta o`ringa ega bo`lgan. Lekin 2018 yilda yagona bolalar sanatoriyasi o`z faoliyatini to`xtatib, bu bilan O`zbekistondagi bolalar sanatoriyasi bo`lmagan Sirdaryo viloyatidan so`ng ikkinchi hududga aylandi. Bu vaqtda esa Buxorto viloyatida 6 yoshdan 16 yoshgacha bo`lgan umumta`lim muassasalari o`quvchilari ya`ni bolalar soni 283 100 nafarni tashkil etishi va ularning

⁴ O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2020. B – 32.

⁵ O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2014. B – 55.

⁶ O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2014. B – 57.

⁷ O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2020. B – 64 – 65.

⁸ O`sha joy.



salomatligini mustahkamlash uchun viloyatda bolalar sog`lomashtirish sanatoriya muassasalari faoliyati naqadar zarurligini tushunish qiyin emas⁹.

XX asrning 70 – 80 yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo`yi mamlakatlari aholisi orasida davolash (quyoshi, mineral suvi, muolaja xizmatlari) bilan juda mashhur bo`lgan Moxi Xossa sanatoriyasi oxirgi chorak yil davomida xizmatlar sifatining pastligi, moddiy texnik bazasining yangilanmasligi, targ`ibot – tashviqot ishlarining cheklanganligi kabi omillar tufayli xalqaro va respublika darajasidagi mavqeidan ajralmoqda.

Bunda qiyidagi taklif va chora – tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: Birinchidan ushbu tarmoqdagi boshqaruvda innovatsion yangilanish va modernizatsiya tadbirlari amalga oshirish, tashqi va ichki targ`ibot – tashviqot ishlarini zamonaviy talablar asosida yangidan yo`lga qo`yish, davlat sherikchilik asosida xususiy hamda xorijiy sarmoyador tadbirkorlarni yangi loyihalarga jalb etish,

Ikkinchidan jahondagi sanatoriya – sog`lomashtirish muassasalari orasida Moxi Xossa sanatoriyasi brendini tanitish va undagi tibbiy va boshqa xizmatlarni jahon standartlari darajasida taqdim etish,

Uchinchidan viloyat aholisi va bolalar salomatligini saqlash sohasida yangi ixtisoslashgan sanatoriyalar hamda bolalar sog`lomashtirish sihatgohlarini tashkil etish.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi viloyatga sayyohlarning yangi va maqsadli oqimini kengaytirishga xizmat qilib, pirovard natijada valyuta tushumini ko`payishiga hamda shu bilan birga ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni ijobiy hal etishda turizmni va u bilan bog`liq tarmoqlarning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

⁹ Yillik statistik to`plam. 2010 – 2018. Toshkent – 2019. B – 69 – 70.

**Adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasining “Turizm to`g`risida” gi qonuni // Xalq so`zi , №147(7377), 2019 yil 19 iyul
2. <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>
3. Sh.Mirziyoyev. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent: "O`zbekiston» NMIU, 2018. B-60-61.
4. O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2020. B – 32.
5. O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2014. B – 55.
6. O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2014. B – 57.
7. O`zbekistonda turizm. Toshkent – 2020. B – 64 – 65.
8. O`sha joy.
9. Yillik statistik to`plam. 2010 – 2018. Toshkent – 2019. B